

---

## Anklav hududlarda amalga oshirilishi belgilangan vazifalarni yanada masuliyat bilan bajarishga kirishildi

Farg'ona viloyatining anklav hududlari hisoblanuvchi So'x tumani, Farg'ona tumani "Shohimardon" va "Yordon" qishloqlari hamda Rishton tumani "Cho'ng'ara" qishlog'idagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi muammolar, aholining kundalik kayfiyati bilan bog'liq bo'lgan masalalar avvalo, respublikamiz rahbariyati qolaversa, viloyat va tuman mutasaddilarining, shuningdek, viloyat rahbariyatining doimiy e'tiborida. Jumladan, viloyat hokimligining 2018 yil 23 yanvardagi 23/01-49 sonli yig'ilish bayoniga ko'ra, ushbu masala yuzasidan bir qator chora-tadbirlar, vazifalar belgilanib olingan edi.

Joriy yil 14 aprel kuni viloyat hokimi Sh.G'aniev boshchiligida o'tkazilgan yig'ilishda ana shu majlis bayonida belgilab berilgan muhim vazifalarning bajarilish holati tanqidiy ko'rib chiqildi. Shuningdek, **Shohimardon va Yordon qishloqlarida ziyorat va dam olishga keluvchi mahalliy va xorijiy sayohatchilar uchun zarur sharoitlarni yaratish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va mavsumga munosib tayyorgarlik ko'rish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilib, tuman hokimligi, mutasaddi rahbarlar hamda ishchi guruh faoliyati yanada jonlantirildi.**

Yig'ilish qaroriga ko'ra, 15-16 aprel kunlari Farg'ona tumani Shohimardon, Yordon qishloqlarida amalga oshirilishi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan viloyat tegishli boshqarma va tashkilotlari vakillaridan iborat (46 nafar); So'x tumanini o'rganish uchun esa 52 nafardan iborat ishchi guruh joylarga borib, ushbu hududlarda qayta o'rganish ishlari bajarildi. Unga ko'ra, aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun aniq takliflar, vazifalar hamda yo'l xaritalari ishlab chiqilib, belgilangan ishlarni yanada mas'uliyat bilan bajarishga kirishildi.

2018-04-16 18:42:04